



O'ZBEKISTON VA QORAQALPOG'ISTONDA DAMLI CHOLG'U ASBOBLARINING RIVOJI

Muratbaev Abat

O'zbekiston Davlat konservatoriyasi
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida
2-bosqich magistranti.

Abdullayev F.R.

Ilmiy rahbari O'zbekiston Davlat konservatoriyasi
Professori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18678688>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 15-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 18-fevral 2026 yil

KEYWORDS

*musiq, klarnet, tuba,
ijrochilik, orkestr, poema.*

ABSTRACT

Bu maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda damli cholg'ular uchun yaratilgan asarlar, ijrochilar, kompozitorlar, nashr qilingan kitoblar, damli cholg'ularning rivoji bosqichida o'tkazilgan tanlovlar, konsertlar, mahorat darslari haqida so'z etilgan. Bu ma'lumotlar oliy o'quv yurti talabalari, va barcha ijrochilar uchun yozilgan.

O'zbekiston kompozitorlari damli va zarbli cholg'ular uchun asosan ikkinchi jahon urushidan keyin ijod qila boshladilar. Jumladan, quyidagi kompozitorlar ijodida ko'rishimiz mumkin. G.Mushelning fleyta va fortepiano uchun sonata (1948), S.Boboevning klarnet va fortepiano uchun rapsodiyasi (1948), F.Nazarovning klarnet va fortepiano uchun suitasi (1949), G.Mushelning fleyta uchun "Arabeska", tuba uchun "Bayram marshi", trombon uchun "Qahramona monolog", valturna uchun "So'zsiz qo'shiq", tuba uchun "Lirik munozara" va boshqa asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, keyingi yillarda damli cholg'ularning har biri uchun alohida asarlar yozgan kompozitorlarni ham atab o'tishimiz mumkin: fleyta uchun H.Rahimov "Turkcha fantaziya", goboy uchun S.Abramova "Raq", T.Qurbonov "Rondo", M.Bafoev "Konsert", A.Hoshimov "Raq", klarnet uchun P.Xaliqov "Skerco", "Konsertino", F.Yanov-Yanovskiy "Monolog", M.Bafoev "Lirik hikoya", A.Hoshimov "Afsana", A.Ergashev "Sharq kaprichiosi", fagot uchun S.Jalilning "Yumoreska", valturna uchun B.Gienko "Romans", "Oqshom kuyi", A.Varelas "Ballada", F.Nazarov "Raq", "Alla", trombon uchun P.Xaliqov "Konsert", T.Qurbonov "Rondo", A.Varelas "Melodiya", F.Yanov-Yanovskiy "Lamenta", A.Sultonov "Hayot", H.Rahimov "Toccata", M.Mahmudovning ikkita trombon va litavralar uchun "Prelyudiya-takkato", tuba uchun A.Berlin "Vals", zarbli cholg'ular uchun M.Bafoev "Konsert" kabi asarlar yaratilgan.

1983-yili damli cholg'u ijrochilari IV butunittifoq tanlovi o'tkazildi. Bunda 159 kishi qatnashdi va O'zbekiston vakillari asosan konservatoriya talabalari bo'lib, bular: valtornachi Sh.Lutfirahmanov (R.R.Safarov sinfi), trubachilar I.Gadaev, V.Budyukov, T.Davletshayev (V.F.Po'latov sinfi), filarmoniya simfonik orkestri solisti R.Shagimardanov, R.Nigmatullin (T.Fazilov sinfi), zarbli cholg'ular E.Qayumov, T.Isakov (Yu.Kachurin sinfi) shular jumlasidandir. Tanlovning ikkinchi bosqichiga 9 kishidan 5 nafari o'tdi. Bular Sh.Lutfirahmanov, I.Gadaev, R.Shagimardanov, N.Nigmatullin, T.Isakovlar edi. Uchinchi

bosqichga esa faqat Sh.Lutfirahmanov va T.Isakovlar o'tishdi va bu turda Sh.Lutfirahmanov III o'rin, T.Isakov esa tanlov diplomanti bo'ldilar. Jo'rnnavozlardan T.Kontuashvili, V.Fadeeva va G.G'ulomovalar ham tanlov diplomlari bilan taqdirlandilar.

1984-yili Olma-Ota shahrida mis damli cholg'ular xalqaro tanlovi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistondan 10 nafar ijrochi, ya'ni konservatoriya talabalari bilan birgalikda Guliston musiqa bilim yurti o'qituvchisi, valturnachi B.Dragin va N.Nigmatullin, Samarqand musiqa bilim yurti o'quvchisi S.Muradasilov (B.M.Belskiy sinfi) qatnashdilar. Tanlovning ikkinchi bosqichiga valturnachi Yu.Maksimov (R.Safarov sinfi), trubachi A.Artamanov (V.Po'latov sinfi), trombonchi B.Isabekov (G.Vegilesov sinfi), tubachi N.Nigmatullin, zarbli cholg'ular A.Mironov (Yu.Kachurin sinfi) o'tdilar va madaniyat ishlari vazirligining faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar. Bu tanlovda birinchi marta Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan musiqa bilim yurtlarining yosh o'qituvchilarining ishtirok etganliklari bilan ahamiyatlidir. Butunittifoq tanlovlarida qatnashish respublika damli cholg'ular ijrochiligining orkestr va yakkaxon turlarida ham yosh talantlarni ijodiy o'sishiga juda katta tasir ko'rsatdi.

1978-yili V.Uspenskiy nomidagi RO'MMMIda internat tashkil qilinishi munosabati bilan O'zbekistonning barcha burchaklaridan iqtidorli bolalarini bu yaxshi shart-sharoitli internatga jalb qilish imkoniyati tug'ildi. Bu yerda o'quv va tarbiya ishlarini direktorning shu soha bo'yicha o'rinbosari Farg'ona musiqa bilim yurtida yetarli tajriba to'plagan Yefim Mixaylovich Gulyaev boshqardi. Damli cholg'ular sinflari A.Malkeev, V.Po'latov, V.Melkomini, K.Azimov, P.Belyakov, R.Safarov, keyinchalik Ye.Goldvext, trombonchi J.Saburov kabi tajribali o'qituvchilar o'z faoliyatini olib bordi. Ye.M.Gulyaev esa maktabda damli cholg'ular orkestrini tashkil qildi va bu orkestr bilan xalqaro festival va bayramlarda qatnashdi. Maktab-internatning damli cholg'ular bo'limi konservatoriyaga o'quvchilar tayyorlashning asosiy bazasi sifatida xizmat qildi, o'quvchilar Respublika tanlovlarida sovrinli o'rinlarni egallar edilar. 70-yillarga kelib maktab damli cholg'ular bo'limi yangi o'qituvchilar: N.A.Ziyaxodjaev (goboy sinfi), A.E.Suris, M.A.Ruxalis (klarnet sinfi), N.Umarov (fagot sinfi), P.Talaevskiy, A.G.Zandin (tuba sinfi), V.T.Kazakov (trombon sinfi) kabilar bilan to'ldi. Maktab-internatni shu davrgacha ming yarimdan ortiq o'quvchi bitirib chiqqan bo'lsa ular ichida faxrlansa arziydigan butunittifoq va xalqaro tanlov g'oliblaridan V.Krivosheev, Kryukovsev (B.Ya.Godesni shogirdlari), V.Tarasov, Sh.Lutfirahmanov (I.F.Pavlovskiyning shogirdlari) va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Bu davrda konservatoriya damli va zarbli cholg'ular kafedrasini faoliyati ancha faollashdi. Kafedraga yangi kelgan yosh, g'ayratli o'qituvchi R.R.Safarovning shogirdi valturnachi Sh.Lutfirahmanov 1980-yili Tallinda o'tkazilgan butunittifoq tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi va Moskvadagi katta teatr orkestriga solist sifatida taklif qilindi. Yosh o'qituvchilardan Yu.V.Kachurin ham yuqorida ko'rsatilgan tanlovga o'z shogirdi T.Isakovni tayyorladi va u tanlov diplomini qo'lga kiritdi. Shuningdek yosh o'qituvchilardan G.K.Vergilesov 30 ortiq trombonchini tarbiyalab yetkazdi.

1976-yildan damli va zarbli cholg'ular kafedrasini A.V.Malkeev boshqardi. Kafedraning muhim vazifalaridan biri yosh mutaxassislarni tayyorlash sifatini yanada oshirish edi, bu maqsad uchun o'z tajriba va bilimini ayamaslikdan iborat edi. Bu borada kafedra jo'rnnavozlaridan E.A.Kosmodemyanskaya, T.Cheremuxina, V.V.Zolotenkolar yillar davomida sifatli kadrlar tayyorlash ishiga o'z ulushlarini qo'shib keldilar. O'qituvchilar ijrochilik faoliyatini O'zbekiston davlat filarmoniyasi simfonik orkestri, A.Navoyi nomidagi opera va balet DAKT orkestri va boshqa konsert hamda teatr jamoalari orkestrlaridagi ishini o'qituvchilik

bilan ijrochilik mahoratini birga qo'shib olib boradilar. Kafedra ochilganligining dastlabki kunlaridanoq o'qituvchilarning boy ilmiy tajribasi asosida metodik tavsiyanomalar, yo'riqnomalar va uslubiy ishlar yozishga katta e'tibor berila boshlandi. Kafedra o'qituvchilaridan V.F.Po'latov, A.V.Malkeev, R.R.Safarov, V.L.Melkominilar viloyat musiqa bilim yurtlariga kuratorlik qilib, vaqti vaqti bilan joylarga chiqib u yerdagi musiqa bilim yurtlarida tayyorlanadigan kadrlar sifatini oshirishga qo'llaridan kelganicha yordam berdilar. Kafedra o'rta maxsus 65 o'quv yurtlari yosh ijrochi o'quvchilari orasida o'tkaziladigan Respublika tanlovi tashabbuskori hisoblanadi va har bir tanlov yakunida seminar tashkil qilinib oldinda turgan vazifalar, kelgusi tanlovda ijro qilinadigan dasturlar maslahatlashilardi va ularni tuzishda kafedra yetakchi vazifasini bajarardi. Shuningdek, Konservatoriya talabalari orasida virtuoz asarlarni ijro etish bo'yicha o'zaro ichki tanlov (sinf konsertlari) kafedra konsertlari tashkil qilindi. Bunday tadbirlarning barchasi kelgusida ijrochilik saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, bo'lg'usi xalqaro tanlovlarga bo'ladigan saralash bosqichlariga tayyorlash maqsadida qilingan edi. 70-yillarda kafedra shu sohada boshqa oliy o'quv yurtlari kafedralari bilan yaqin aloqalar o'rnatilishi natijasida butunittifoq doirasiga chiqib oldi. O'zbekistonda ijrochilik san'atini yuksaltirishda markaziy konservatoriyalarning ko'zga ko'ringan mutaxassislari, buyuk ijrochilar bilan bo'lgan ijodiy aloqalar muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa Moskva Konservatoriyasi va Gnesin nomidagi institut professor-o'qituvchilari bilan muhim aloqalarni o'rnatishda V.F.Po'latovning xizmatlari katta bo'ldi. Shuningdek, Moskva katta teatri orkestri, butunittifoq radio va televidenie orkestri solistlari bilan ham muntazam aloqalar o'rnatildi. Qator yillar davomida V.Po'latov T.A.Dokshitser tashabbusi bilan tashkil qilingan Moskvadagi san'at xodimlari markaziy uyi qoshidagi "Damli cholg'ular ijrochilarining ijodiy birlashmasi ishida faol qatnashdi. 1977-yilda taniqli damli cholg'ular ustoz ijrochilari M.I.Tabakov va V.N.Sibinlar tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda V.F.Po'latov ishtirok etdi.

Shu yili Moskva va Toshkent Konservatoriyalari o'rtasida tuzilgan o'zaro ijodiy aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik shartnomasi bu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur shartnoma asosida Toshkentga Moskvaning ko'zga ko'ringan mutaxassislari taklif qilindi. Ulardan birinchi bo'lib kelgani Moskva Konservatoriyasining professori, fleytachi Yu.N.Doljikov bo'lib, u Parij konservatoriyasida dunyoga mashhur fleytachi Jan Pol Rampal rahbarligida malakasini oshirib qaytgan edi. U konservatoriya talabalari va V.Uspenskiy nomidagi RO'MMMI o'quvchilari bilan mashg'ulotlar, ochiq darslar o'tkazdi va "Fleytada ijro jarayonida nafas olish mahorati"ga bag'ishlangan ma'ruzalar qildi. Moskva konservatoriyasining professori Yu.N.Usov ham Toshkentda bir necha bor bo'lib, ijrochilik tarixi va metodikasiga oid ma'ruzalar bilan shahardagi bir qancha o'quv yurtlarida ma'ruzalar qildi. Mustaqillik yillarida o'zbek kompozitorlaridan A.Ergashev, M.Otajonov, A.Hoshimov, Q.Rahimov, N.G'iyosov va boshqalar damli va zarbli cholg'ular uchun asarlar yaratdilar. Dunyo yuzini ko'rgan ayrim asarlar B.Solihovning "Klarnet uchun darsligi" kitobiga kiritilgan bo'lib, bulardan M.Bafoevning "Lirik hikoya", V.Saparovning "Uch prelyudiya", Xoliqovning "Skertso" va "Koncertino", A.Hoshimovning "Afsana", A.Ergashevning "Sharq kaprichiosi", F.Yanov-Yanovskiyning "Solo-monolog", D.Qurbonovning "To'gliklar xirgoyasi" asarlari shular jumlasidandir. B.Zeydman, B.Gienko, G.Mushel, T.Qurbonov, A.Varelas, N.G'iyosov kabi uch avlod kompozitorlarining asarlari jamlangan. Bu kitobda kamer asarlarida damli cholg'ularning deyarli barchasi qamrab oladi. Shuningdek, damli cholg'ular uchun moslashtirilgan xalq kuylaridan ushbu satrlar muallifining klarnet va fortepiano uchun "Muhabbat" nomli to'rtta:

“Elpasalandi va uforsi, Zumlaq, Norim-norim va uforsi, Muhabbat” deb nomlangan Xorazmcha raqs kuylarini o‘z ichiga mujassamlashtirilgan to‘plami ham o‘quvchilarga xalq kuylarini o‘z cholg‘ularida chalib ko‘rishlari va qo‘shnay, surnaylar bilan qiyosiy taqqoslashlarida katta yordam beradi”. To‘planning fortepiano partiyasini iste‘dodli kompozitor Muhammadjon Otajonov bastalagan.

O‘zbek kompozitorlarining damli cholg‘ular orkestrlari uchun yozilgan asarlari kamligi achinarli hol, albatta. Faqatgina harbiy orkestr rahbarlari-polkovnik Grigoriy Terzyan O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi alohida namunalı ko‘rgazmali orkestr badiiy rahbar va bosh dirijyori hamda O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi alohida namunalı ko‘rgazmali orkestr badiiy rahbar va bosh dirijyori polkovnik Pavel Makarovning va shu insonlar kabi harbiy orkestrlarda ishlagan musiqachilarni yozgan asarlarini yoki qilgan musiqiy sayqal (aranjirovka)larini keltirish mumkin. Ular kompozitor sifatida emas, balki cholg‘u ijrochisi, dirijyor sifatida faoliyat yuritishgan. Shuni ham alohida aytib o‘tish kerakki, ochilganiga oz vaqt bo‘lishiga qaramastan O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida ham damli chog‘u orkestr ansambllari o‘z faoliyatini yaxshi olib bormoqda, har yili mashxur chet el ijrochilari kelib mahorat darslarini o‘tib berishmoqda shuningdek, filial studentlari bilan birgalikda triolarni ijro etib, talabalarning hamda ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining damli cholg‘uga bo‘lgan hurmatini va qiziqishlarini oshirmoqda. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, 2025-yil, 18-Mart oyida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialining damli cholg‘ular mutaxassisligi talaba-yoshlari uchun Antaliya davlat Simfonik orkestrining fleyta artisti, dotsent, Lelya Bayramog‘ullari xalqaro onlayn mahorat darsini olib bordi. O‘tkazilgan mahorat darsi orqali talaba-yoshlar o‘zlarining nazariy va amaliy bilimlarini yanada mustahkamladi.



Yanada O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali professor- o‘qituvchilar tomonidan talaba-yoshlar uchun yangi o‘quv qo‘llanmalari, asarlar va ularning tahlili keltirilgan kitoblar nashr qilindi, Qoraqalpoq kompozitorlari, G.Demesinov tarafidan (klarnet, fortepiano, skripka) uchun trio, U.Abdullaeva tomonidan (fleyta, fagot, truba, voltorna va fortrepiano uchun) pyesalar, J.Charshemov tarafidan damli cho‘lgular orkestri uchun “Qoraqalpoq marshi”, R.Abatbaeva tomonidan (klarnet, fortepiano) uchun “Poema” asarlarini yaratib, qoraqalpoq musiqa madaniyatida damli cho‘lg‘uilar repertuarini boyitdilar.

O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali o‘chilganidan buyon bu yo‘nalish bo‘yicha adabiyotlar chop etilib kelinmoqda jumladan, “Musiqqa san‘ati” fakulteti dekani Abdirasul Jumabaevning “Trombon sinfi” nomli o‘quv qo‘llanmasi oliy o‘quv yurtlarining musiqa ta‘limi yo‘nalishidagi 1-bosqich bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘zbekistonda damli cholg‘u ijrochiligining shakllanishi, trombon cholg‘usiga oid qisqacha ma‘lumotlar va

ovoz hosil qilish, ijrochilikda texnik imkoniyatlarni oshirish masalalari bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston va jahon kompozitorlarining trombon cholg'usi uchun maxsus yozilgan asarlar tahlili va ularga berilgan fikrlar, uslubiy maslahat va tavsiyalardan iborat. Mazkur o'quv qo'llanmadan trombon cholg'usi ixtisosligi, turdosh cholg'ular, ijrochilik va pedagogik amaliyot fanlarida maxsus adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Fransiya madaniyati oyligi doirasida 2025-yil 19-noyabr kuni O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida Fransiyaning Versal konservatoriyasi bilan hamkorlikda fransiyalik musiqa ijrochilari "Trielen triosi" va filialning iqtidorli talaba-yoshlaridan tashkil topgan "Damli cholg'ular orkestri" bilan hamkorlikda konsert dasturi tashkil etilib, unda dunyoga mashhur kompozitorlar: V.A. Motsart, Dj.Verdi J.Orik, J.Iber ijodidan asarlar ijro etildi.



O'tkazilgan jonli konsertlar, mahorat darslari tomoshabinlar qalbidan chuqur joy oldi. Chunki, jahon mumtoz musiqasi namunalari hech bir insonni befarq qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdullayev F. Demli hám urma saz ásbaplar atqaríwshılıǵı (truba). Oqıw qollanba. "Elnur-print" 2023. Qoraqalpoq tiliga tarjima ishladi: Jumabaev.A
- 2.Abdullaeva O. Ásbaptanıw-Nókis: "Ilimpaz" nashri, 2023. Qoraqalpoq tiliga tarjima qildi Charshemov.J
- 3.Abdullaev F.R. "O'zbekstanda demli ásbaplar orkestri" Moziydan sado jurnalı. 2016.
- 4.Azimov. K.T. "O'zbekiston dirijyorlari". - Toshkent: 2001.
- 5.Jumabayev.A.E "Trombon sinfi" "GOLDEN PRINT NUKUS" No'kis 2025.
- 6.Свечков Д. Духовой оркестр. МУЗГИЗ 1977